

BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIFFERENSIALLASHTIRILGAN O'QITISH METODIKASI ORQALI HAR BIR O'QUVCHIGA YONDASHISH

Nodirova Farangiz Yaxshiboyevna

Shahrisabz davlat pedagogika institutining Pedagogika fakultetiti

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

[https://doi.org/ 10.5281/zenodo.20641436](https://doi.org/10.5281/zenodo.20641436)

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda differensiallashtirilgan o'qitish metodikasini tatbiq etishning nazariy asoslari va amaliy jihatlari o'rganilgan. Tadqiqotda har bir o'quvchining individual bilish qobiliyati, o'zlashtirish sur'ati va qiziqishlari hisobga olingan holda ta'lim jarayonini moslashtirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada differensiallashtirilgan o'qitishning asosiy tamoyillari, uni boshlang'ich sinf darslarida qo'llash shakllari hamda o'qituvchining bu jarayondagi roli va vazifalari yoritilgan. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, differensiallashtirilgan yondashuv o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirishda, bilim sifatini yaxshilashda va har bir bolaning shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim amaliyotiga tadbiq etilishi mumkin bo'lgan metodik tavsiyalar bilan yakunlangan.

Kalit so'zlar: differensiallashtirilgan o'qitish, boshlang'ich ta'lim, individual yondashuv, o'quvchi qobiliyati, o'quv motivatsiyasi, pedagogik metodika, ta'limni moslashtirish, bilim sifati.

Abstract: This article examines the theoretical foundations and practical aspects of implementing differentiated instruction in primary school education. The study analyzes the pedagogical possibilities of adapting the educational process by taking into account each student's individual cognitive abilities, learning pace, and personal interests. The article outlines the core principles of differentiated teaching, the forms of its application in primary school lessons, and the role and responsibilities of the teacher throughout this process. The analysis conducted reveals that a differentiated approach serves as a significant pedagogical tool in enhancing students' academic motivation, improving the quality of knowledge acquisition, and enabling each child to realize their personal potential. The findings of the study are concluded with methodological recommendations applicable to primary education practice.

Keywords: differentiated instruction, primary education, individual approach, student ability, academic motivation, pedagogical methodology, adaptive teaching, quality of knowledge.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические основы и практические аспекты применения дифференцированного обучения в начальных классах. В ходе исследования проанализированы педагогические возможности адаптации учебного процесса с учётом индивидуальных познавательных способностей, темпа усвоения материала и личных интересов каждого учащегося. В статье раскрыты основные принципы дифференцированного обучения, формы его реализации на уроках в начальной школе, а также роль и задачи учителя в данном процессе. Проведённый анализ свидетельствует о том, что дифференцированный подход выступает важным педагогическим инструментом повышения учебной мотивации школьников, улучшения качества усвоения знаний и раскрытия личностного потенциала каждого

ребёнка. Результаты исследования завершаются методическими рекомендациями, применимыми в практике начального образования.

Ключевые слова: дифференцированное обучение, начальное образование, индивидуальный подход, способности учащихся, учебная мотивация, педагогическая методика, адаптивное обучение, качество знаний.

Kirish; Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi "Respublika xalq ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4312-son qarori hamda 2020-yil 6-noyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etishning huquqiy asosini belgilab berdi. Mazkur me'yoriy hujjatlarda har bir o'quvchining individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'lim sifatini oshirish masalasi alohida ta'kidlangan. Shu jihatdan qaraganda, differentsiallashtirilgan o'qitish metodikasi bugungi ta'lim islohoti talablariga to'liq javob beradigan pedagogik yondashuv sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika fanida differentsiallashtirilgan o'qitish masalasi ko'plab olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Xususan, amerikalik pedagog olimi Carol Ann Tomlinson o'zining "The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners" (1999) asarida differentsiallashtirilgan o'qitishni o'quvchilarning tayyor bilim darajasi, o'rganish uslubi va qiziqishlariga ko'ra ta'lim mazmunini, jarayonini va natijasini moslashtirishga asoslangan yondashuv sifatida ta'riflaydi. Olimaning fikricha, bir xil sinf ichida har xil o'quvchilar mavjud bo'lib, ularning barchasi bir xil metod va sur'atda o'qitilsa, ta'lim samaradorligi keskin pasayadi. Ushbu g'oya zamonaviy pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biriga aylanib, dunyo bo'ylab keng tan olingan.

Rus pedagogikasida esa Inessa Unt o'zining "Individualizatsiya i differentsiatsiya obucheniya" monografiyasida differentsiatsiyani ta'lim jarayonida ikki yo'nalishda — tashqi va ichki differentsiatsiya shaklida amalga oshirish mumkinligini asoslab bergan. Tashqi differentsiatsiya o'quvchilarni qobiliyat yoki yo'nalishga ko'ra guruhlariga ajratishni, ichki differentsiatsiya esa bir sinf ichida har xil darajadagi topshiriqlar orqali individual yondashuvni ta'minlashni anglatadi. O'zbek pedagogikasida ham bu masala O'rinboy Musurmonov, Saodat Sheraliyeva kabi olimlarning tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan bo'lib, ular differentsiallashtirilgan o'qitishning milliy ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyatini maxsus ta'kidlashgan. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, differentsiallashtirilgan o'qitishning ilmiy asosi Lev Vigotskiyning "Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga borib taqaladi. Vigotskiy ta'kidlaganidek, har bir bola mustaqil erishishi mumkin bo'lgan daraja bilan kattalar yoki tengdoshlar yordamida erishishi mumkin bo'lgan daraja o'rtasida ma'lum bir masofa mavjud bo'lib, ta'lim ana shu zonada qurilishi lozim. Demak, o'qituvchi har bir o'quvchining yaqin rivojlanish zonasini aniqlab, unga mos vazifalar orqali ta'lim berishi — differentsiallashtirilgan yondashuvning psixologik mohiyatini tashkil etadi. Bu nazariya bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining asosiga aylanib bormoqda.

ASOSIY QISM: Differentsiallashtirilgan o'qitishning nazariy asoslari va mohiyat-differentsiallashtirilgan o'qitish inglizcha: differentiated instruction — bu ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual farqlarini — bilim darajasini, o'rganish sur'atini, qiziqishlarini va

o'rganish uslubini — hisobga olgan holda ta'lim mazmunini, usullarini va baholash shakllarini moslashtirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv hisoblanadi. Ushbu tushuncha zamonaviy pedagogikada tobora muhim o'rin egallab bormoqda, zira bir xil sinfda o'tirgan o'quvchilar hech qachon bir xil emas — ular turli oilaviy muhitdan, turli bilim zaxirasidan va turli kognitiv imkoniyatlardan kelib chiqadi. Carol Ann Tomlinson differensiallashtirilgan o'qitishni to'rtta asosiy komponent orqali tavsiflaydi: ta'lim mazmunini content, jarayonni process, mahsulotni product va o'quv muhitini learning environment moslashtirish. Muallif ta'kidlashicha, o'qituvchi bu to'rtta komponentning har birini o'quvchining tayyorgarlik darajasiga readiness, qiziqishiga interest va o'rganish profiliga learning profile ko'ra farqlash orqali har bir bolaga eng samarali ta'lim berish imkoniyatiga ega bo'ladi Tomlinson, 1999. Bu yondashuv amalda shuni anglatadiki, bir xil mavzu bo'yicha turli o'quvchilarga turli murakkablikdagi matnlar, turli ko'lamdagi topshiriqlar yoki turli shakldagi loyihalar taqdim etiladi. Psixologik nuqtai nazardan esa differensiallashtirilgan o'qitish Howard Gardner tomonidan 1983-yilda ilgari surilgan ko'p turdagi intellect Multiple Intelligences nazariyasiga ham mustahkam tayanadi. Gardner nazariyasiga ko'ra, insonning intellekti bir o'lchovli emas, balki til-lingvistik, mantiqiy-matematik, musiqiy, fazoviy, jismoniy-kinestetik, tabiatga oid, shaxslararo va shaxs ichki kabi kamida sakkiz turda namoyon bo'ladi. Sinfda ushbu xilma-xil intellekt turlarini hisobga olgan holda ta'lim berish — differensiallashtirilgan yondashuvning psixologik asosini tashkil etadi. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, differensiallashtirilgan o'qitish ko'pincha individuallashtirish tushunchasi bilan aralashtiriladi. Ammo bu ikki tushuncha bir-biridan farq qiladi. Individuallashtirishda har bir o'quvchi uchun butunlay alohida dastur tuzilishi nazarda tutilsa, differensiallashtirishda esa umumiy o'quv dasturi doirasida turli guruhlar yoki o'quvchilarga mos keladigan topshiriqlar, usullar va yondashuvlar qo'llaniladi. Demak, differensiallashtirilgan o'qitish amalda kengroq qo'llanilishi mumkin bo'lgan va sinf sharoitida tezda tatbiq etish mumkin bo'lgan yondashuv sifatida samaradorligi bilan ajralib turadi. Boshlang'ich sinflarda differensiallashtirishning shakl va usullari-boshlang'ich sinf darslarida differensiallashtirilgan o'qitishni amaliyotga tatbiq etishning bir necha asosiy shakli mavjud. Ulardan eng ko'p qo'llaniladigan va ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgani — darajali topshiriqlar usulidir. Mazkur usulda o'qituvchi bir mavzu yuzasidan uch darajali topshiriq tuzadi: birinchi daraja — asosiy bilimlarni mustahkamlashga yo'naltirilgan sodda topshiriq; ikkinchi daraja — bilimlarni qo'llashni talab qiluvchi o'rtacha murakkablikdagi topshiriq; uchinchi daraja esa — tahlil, sintez va ijodiy fikrlashni talab qiluvchi yuqori darajali topshiriq. Bu usul o'quvchini past baho olishdan himoya qilgan holda uning haqiqiy qobiliyatiga mos yuklamani ta'minlaydi. Differensiallashtirishning ikkinchi keng tarqalgan shakli — moslashuvchan guruhlar (flexible grouping) usuli hisoblanadi. Tomlinson va Imbeau (2010) ta'kidlashicha, moslashuvchan guruhlar tushunchasi o'quvchilarni doimiy ravishda bir xil guruhda saqlab qo'ymaslikni, balki mavzuga, vazifaga yoki faoliyat turiga qarab guruh tarkibini o'zgartirish mumkinligini bildiradi. Masalan, bitta mavzuda o'qituvchi o'quvchilarni bilim darajasiga ko'ra guruhlasa, keyingi darsda ularni qiziqishlariga ko'ra aralashtirishi mumkin. Bu yondashuv o'quvchilarda "men doim zaif guruhda" yoki "men doim kuchli guruhda" degan qoliplanib qolgan tasavvurning oldini oladi. Uchinchi muhim usul — o'quv markazlari learning centers tashkil etishdir. Boshlang'ich sinf xonasida turli burchaklarda turli topshiriqlar joylashtiriladi va o'quvchilar o'z tayyorgarlik darajasiga yoki qiziqishlariga mos keladigan markazda ishlaydi. Bu usul ayniqsa 1-2-sinf o'quvchilariga nisbatan samarali hisoblanadi, chunki bu yoshdagi

bolalar bir joyda uzoq o'tirish o'rniga harakatlanib, ko'rgazmali materiallar bilan ishlash orqali yanada faolroq o'rganadi. O'quv markazlari o'qituvchiga bir vaqtning o'zida bir guruh bilan yaqin ishlash imkonini beradi, qolgan o'quvchilar esa mustaqil faoliyat olib boradi. O'qituvchining differensiallashtirilgan ta'lim muhitini tashkil etishdagi roli

Differensiallashtirilgan ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'qituvchining roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biroq bu jarayon o'qituvchidan katta professional tayyorgarlik, ijodiy fikrlash va sabr-toqat talab etadi. Tomlinson ta'kidlaganidek, differensiallashtirishni boshlash uchun o'qituvchi avvalo o'z o'quvchilarini chuqur bilishi lozim — ularning bilim darajasini, o'rganish uslubini, qo'rquvlarini va kuchli tomonlarini. Buning uchun o'qituvchi doimiy kuzatuv, qisqa muddatli diagnostik baholash va o'quvchilar bilan individual suhbatlar o'tkazib borishi zarur. Diagnostik baholash differensiallashtirilgan ta'limning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Black va Wiliam o'tkazgan keng ko'lamli tadqiqot shuni ko'rsatdiki, muntazam formativ baholash o'quvchilarning o'quv natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi — ayniqsa o'quv qiyinchiligiga duch keladigan o'quvchilar orasida. Shu sababli differensiallashtirilgan o'qitishni amalga oshirishda o'qituvchi dars boshida qisqa so'rovnomalar, amaliy testlar yoki kuzatuv usullari orqali har bir o'quvchining mavzu bo'yicha bilim darajasini aniqlab olishi va shu asosda o'z darsini moslashtirib rejalashtirib borishi lozim. O'qituvchining yana bir muhim vazifasi — sinfda xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi psixologik muhit yaratishdir. Differensiallashtirilgan ta'limda o'quvchilar turli topshiriqlar bajarishi ularning orasida "nega men oson topshiriq olyapman" yoki "nega men qiyin topshiriq bilan shug'ullanishim kerak" kabi savollarga olib kelishi mumkin. Bu esa o'qituvchidan juda nozik pedagogik mahorat talab etadi: har bir o'quvchiga berilayotgan topshiriq uning kamchiligini emas, balki uning o'sishiga mosligini anglatishini tushuntirish va sinfda raqobat emas, hamkorlik muhiti shakllantirishni ta'minlash zarur. Dweck, Carol Dweck tomonidan ishlab chiqilgan o'sish tafakkuri nazariyasi ham ana shu g'oyaga asoslanadi: har bir o'quvchi to'g'ri yo'naltirilsa, o'sishi mumkin. O'zbekiston sharoitida boshlang'ich sinf o'qituvchisining differensiallashtirilgan o'qitishni tatbiq etishida qator qiyinchiliklar mavjud: sinfdagi o'quvchilar soni ko'pligi, o'quv dasturining zichligi va zararli bir xillik stereotipi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmoni pedagogik kadrlarga malaka oshirishni majburiy tartibga kiritgan bo'lib, ushbu islohotning asosiy yo'nalishlaridan biri o'qituvchilarni zamonaviy ta'lim metodlari, jumladan differensiallashtirilgan o'qitish bo'yicha tayyorlashdan iboratdir.

Differensiallashtirilgan o'qitishning o'quvchi motivatsiyasi va bilim sifatiga ta'siri differensiallashtirilgan o'qitish metodikasining o'quvchilar motivatsiyasiga ijobiy ta'siri ko'plab empirik tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Xususan, Vantassel-Baska va) tomonidan olib borilgan tadqiqotda differensiallashtirilgan o'qitish qo'llanilgan sinflarda o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi an'anaviy o'qitish qo'llanilgan sinflarga nisbatan 34 foizga yuqori ekanligi aniqlangan. Bu natija tasodifiy emas: o'quvchi o'ziga mos keladigan vazifani bajarganida muvaffaqiyat his qiladi, muvaffaqiyat esa keyingi harakat qilishga undovchi ichki motivatsiya manbayiga aylanadi. Bilim sifati nuqtai nazaridan ham differensiallashtirilgan yondashuv samarali natijalar beradi. Bloom o'zining mastery learning (puxta o'zlashtirish) konsepsiyasida har bir o'quvchi to'g'ri vaqt va to'g'ri usul bilan o'qitilsa, materialning 95 foizigacha o'zlashtira olishini isbotlab bergan.

Differensiallashtirilgan o'qitish aynan ana shu g'oyani amalda ro'yobga chiqaradi: qoloq o'quvchilarga ko'proq vaqt va qo'shimcha tushuntirish, iqtidorli o'quvchilarga esa yangi va murakkab vazifalar taqdim etiladi. Natijada sinfning umumiy o'zlashtiruv darajasi sezilarli darajada ko'tariladi. O'zbek maktablarida o'tkazilgan tadqiqotlar ham ushbu xulosani qo'llab-quvvatlaydi. Musurmonov tomonidan Toshkent viloyati boshlang'ich maktablarida amalga oshirilgan pedagogik tajribada differensiallashtirilgan topshiriqlarni muntazam qo'llaydigan sinflarda o'quvchilarning chorak yakunidagi o'rtacha bali 12 foizga oshganligi va darsga qatnashmaydigan o'quvchilar soni kamayib borganligi qayd etilgan. Bu esa differensiallashtirilgan o'qitishning nafaqat nazariy, balki amaliy samaradorligini ham isbotlaydi. Shu bilan birga, differensiallashtirilgan o'qitish faqat akademik ko'rsatkichlarga emas, balki o'quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi o'z darajasiga mos topshiriqni muvaffaqiyatli bajarib, o'qituvchidan tan olinish hissi tuyganida uning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi. Bu esa psixologiyada "akademik o'z-samaradorlik" academic self-efficacy deb ataladigan tushuncha bo'lib, Bandura tomonidan chuqur o'rganilgan. Banduraning fikricha, o'z-samaradorlik hissi yuqori bo'lgan o'quvchi qiyinchiliklarga duch kelganda ham harakat qilishda davom etadi va bu uning uzoq muddatli ta'lim muvaffaqiyatining asosiy kafolatlaridan biriga aylanadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, differensiallashtirilgan o'qitish metodikasi boshlang'ich ta'limda har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish, bilim sifatini oshirish va o'quv motivatsiyasini mustahkamlash imkonini beruvchi ilmiy asoslangan, zamonaviy va amaliy samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Bu metodikani muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun o'qituvchidan puxta tayyorgarlik, doimiy kuzatuv va ijodiy yondashuv talab etiladi. O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida ushbu metodikaning keng joriy etilishi — zamonaviy, sifatli va inkluziv ta'lim muhitini shakllantirishning muhim shartidir. Mazkur tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinflarda differensiallashtirilgan o'qitish metodikasining nazariy asoslari, amaliy shakllari va ta'lim jarayoniga ta'siri keng qamrovli tarzda o'rganildi. Olib borilgan tahlillar bir qator muhim ilmiy va amaliy xulosalar chiqarishga imkon berdi. Birinchidan, differensiallashtirilgan o'qitish — bu o'quvchilarning bilim darajasi, o'rganish sur'ati, qiziqishlari va o'rganish uslublaridagi individual farqlarni hisobga olgan holda ta'lim mazmunini, jarayonini, mahsulotini va muhitini moslashtirishga asoslangan ilmiy asoslangan pedagogik yondashuv ekanligi aniqlandi. Bu yondashuv Tomlinson, Gardner, Ikkinchidan, boshlang'ich sinf darslarida differensiallashtirishning darajali topshiriqlar, moslashuvchan guruhlar, o'quv markazlari, kompakt o'qitish va tanlov berish kabi shakllari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos pedagogik vaziyatlarda samarali natija berishi aniqlandi. O'qituvchi ushbu usullarni ijodiy va tizimli qo'llash orqali sinfdagi barcha o'quvchilarning o'quv ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega. Uchinchidan, differensiallashtirilgan o'qitishni muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'qituvchining roli hal qiluvchi omil ekanligi isbotlandi. O'qituvchi o'quvchilarni chuqur bilishi, muntazam diagnostik baholash olib borishi, sinfda xavfsiz psixologik muhit yaratishi va har bir o'quvchini muvaffaqiyatga undab borishi zarur.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2020-yil 23-sentabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-son qarori "Respublika xalq ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". — Toshkent, 2019-yil 29-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son Farmoni "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasida ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". — Toshkent, 2020-yil 6-noyabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni. — Toshkent, 2022-yil 11-may.
5. Bandura A. Self-efficacy: The exercise of control. — New York: W.H. Freeman, 1997. — 604 p.
6. Black P., Wiliam D. Assessment and classroom learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. — 1998. — Vol. 5, № 1. — P. 7–74.
7. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain. — New York: David McKay, 1956. — 207 p.
8. Bloom B.S. Learning for mastery // Evaluation Comment. — 1968. — Vol. 1, № 2. — P. 1–12.
9. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. — New York: Plenum Press, 1985. — 371 p.
10. Dweck C.S. Mindset: The New Psychology of Success. — New York: Random House, 2006. — 276 p.
11. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. — New York: Basic Books, 1983. — 440 p.
12. Renzulli J.S., Smith L.H. The Compactor: An Individual Educational Plan for Curriculum Compacting. — Mansfield Center: Creative Learning Press, 1978.
13. Tomlinson C.A. The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. — Alexandria: ASCD, 1999. — 179 p.
14. Tomlinson C.A. Fulfilling the Promise of the Differentiated Classroom. — Alexandria: ASCD, 2003. — 194 p.
15. Tomlinson C.A., Imbeau M.B. Leading and Managing a Differentiated Classroom. — Alexandria: ASCD, 2010. — 210 p.
16. Unt I. Individualizatsiya i differentsiatsiya obucheniya. — Moskva: Pedagogika, 1990. — 192 s.
17. VanTassel-Baska J., Stamp L. Using the Common Core State Standards for English Language Arts with Gifted and Advanced Learners. — Waco: Prufrock Press, 2010.
18. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge: Harvard University Press, 1978. — 159 p.
19. Musurmonov O. Boshlang'ich ta'limda differensiallashtirilgan yondashuv: nazariya va amaliyot. — Toshkent: O'qituvchi, 2018. — 144 b.
20. Sheraliyeva S. Boshlang'ich sinflarda individual ta'lim texnologiyalari. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2017. — 128 b.
21. Hasanboyeva O., Toshpo'latova X. Pedagogika. — Toshkent: O'qituvchi, 2016. — 320 b.
22. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. — Toshkent: O'qituvchi, 2011. — 255 b.